

SUMMARY. This article discusses the issues of training Karakalpak art personnel, including the opening of the department of the first state Artistic and Musical Drama Society and the first actors and the first written plays of the national Karakalpak troupe «Morning light».

AKTYORLIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Á.Otepbergenov- o'qituvchi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so'zlar: ommaviy tamoshalar rejissyori, aktyorlik mahorati, teatr, texnologiya, dublyor, musiqa, kompozitsiya.

Ключевые слова: режиссер массовых представлений, актерское мастерство, театр, технология, дублер, музыка, композиция.

Key words: director of mass performances, acting, theater, technology, understudy, music, composition.

Har bir kasb ma'lum bir hajmdagi bilimni, ko'nikma va malakani talab etadi. Bularsiz tanlangan sohada o'zimizni mutaxassis deb atashimiz mumkin emas. San'atning tanlangan sohasi asoslarini o'zlashtirmay turib uni egallashning iloji yo'qligini hamma yaxshi biladi. Ammo aktyorlik san'ati haqida so'zketsa, shu zahoti turli fikrlar va qarashlar paydo bo'ladi. Aytishlaricha, qobiliyatli aktyorga hech qanday maktabning keragi yo'q, qobiliyatsiz aktyorga hech qanday maktab yordam berolmaydi. Bu fikrdan aktyorlik san'atiga o'qish shart emas, aktyor bo'lib tug'ilish kerak, degan xulosa kelib chiqadi. Bo'lajak aktyorda qobiliyat bo'lishi kerakligi haqidagi fikrga nisbatan hech qanday e'tiroz bo'lishi mumkin emas. Ammo iqtidorli musiqachilar, qo'shiqchilar va balet raqqoslari tabiat bergan iqtidorlarini rivojlantirish, o'z san'atlarining texnikasini egallash uchun yillab mehnat qilishlarini qanday baholash mumkin? Nega teatr aktyori uchun faqat tabiat bergan qobiliyatning o'zi kifoya qilishi kerak? Haqiqiy san'at qobiliyat va mahoratning birlashuvidan paydo bo'ladi. Mahorat esa yillar davomida to'plangan tajriba va an'analar maktabi orqali shakllanadi. Maktab o'quvchining tabiat bergan hislatlariga ishlov beradi va uni rivojlantiradi, unga kerakli bilim va ko'nikmani beradi, uni egiluvchan va har qanday ijodiy vazifani bajara oluvchi ta'sirchan shaklga olib keladi [1:12]. Aktyorlik mahoratining shakllanishi va rivojlanishi natijasida bo'lg'usi aktyor yaxshi mutaxassis bo'lib yetishib chiqadi. Teatr, kino va san'atning boshqa jabhalarining taraqqiyotida aktyorlik san'ati muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham biz pedagoglar oliy ta'lim tizimida har tomonlama yetuk, mukammal har bir rolini yurakdan ijro qiladigan kadrlarni tayyorlashimiz zarur. Talabalarga aktyorlik mahoratini nazariy bilimlar bilan amaliy tarafdin

o'rgatib borish maqsadida dars mashg'ulotlarini, avvalo, talabalarining imkoniyat doirasidan kelib chiqqan holda olib boramiz. Endi, tasavvur, diqqat, kuzatish v.h.k mashg'ulotlar bilan sahna nutqi fanini uyg'unlashtirishimiz va talabalarga ma'ruza, mashg'ulot davomida to'liq yetkazib berishimiz darkor. Mashqlar bilan muntazam shug'ullanib borish natijasida tasavvur ham o'sib boradi. Tasavvur o'sgani sari harakatlar nafislashadi, jilosi ortadi, nazdimizdagi timsollar tez-tez o'rin almashadigan bo'ladi. Ba'zan shunday ham bo'ladi, timsollarni endi rivojlantirmoqchi bo'lgan vaqtningizda ular g'oyib bo'lib qolganini sezmay ham qolasiz. Ularni to'xtatib qolish, istagan muddatgacha ichki nigohdan qochirmaslik uchun nima qilish kerak? Diqqatni bir nuqtada uzoq ushlab tura olishlik, ichki kuch-qudrat hisoblanadi. Aslida tabiatan hammamiz ana shunday quvvatga egamiz. Aks holda kundalik hayotimizda, arzimagan ishlarni ham bajara olmas edik. To'g'ri, aktyorlik san'atini faqat talabalik davrida to'liq egallab bo'lmaydi. Amaliyot – bu talaba uchun dastlabki teatr eshigini ochuvchi va u bilan tanishtiruvchi davrdir. Hayotda yozishni, o'qishni, yod olishni asta sekinlik bilan o'rganganimizdek, aktyorlik san'atini ham birdaniga o'rganib bo'lmaydi. Aktyorlik mahoratini egallashga vaqt va tinimsiz mashg'ulotlar, kitoblar o'qish, atrof-muhitni kuzatish orqali rivojlantirib boramiz. Masalan, aktyorning diqqatni jamlashi faqat xohish irodaga qarab emas, sezgi a'zolarimizga bo'ysingan holda harakat qilishini mashg'ulot davomida talabalarga teran o'rgatishimiz zarur. Bu haqida M. Chexov quyidagicha fikrni bildirgan. Diqqat jarayonida bir vaqtning o'zida bajariladigan to'rtala harakat ruhiy quvvat ta'sirida bir-biriga yondosh tarzda takomillasha boradi. Albatta, bu jarayonda jismoniy kuch talab qilinmaydi. Ular ruhiy quvvat ta'sirida ha-

rakatlanadi. Hattoki diqqat markazida turgan tabiiy jismga e'tibor qaratish jarayoni ham jismoniy ta'sirsiz, ya'ni tovush yoki hissiyot orqali ro'y beradi. Diqqat uchun mo'ljallangan jismoniy harakatlar: a) ko'rish; b) eshitish; v) his qilish; g) sezish; d) ta'm bilish kabi mashqlarda manbaga tashqi jismoniy ta'sir ko'rsatishga moyillik kuchli bo'ladi. Aslida bunday harakatlar faqat diqqatni to'plash jarayonida faollashishi mumkin. Bizda diqqatni to'plash jarayoni boshlanishi bilan sezgi a'zolarimiz harakatdan to'xtaydi... Aktyorning sezgi a'zolari qanchalik erkin bo'lsa, ko'zlagan maqsadga tezroq erishiladi. Sezgilarning erkinligi ko'zlangan maqsadga tezroq erishishning garovidir [2: 5].

Haqiqatan ham talaba faqat cenariy bilan yoki ustozni tavsiya qilgan asarlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Lekin, o'z imkoniyatidan yuqori asarni tanlab, mashg'ulot davomida jismoniy imkoniyatlarini charchatib qo'ymasligi zarur. San'at pedagogikasining nozik jihati shunda pedagog har bir talaba bilan yakka holda ishlashi kerak. Talaba ham ustozining tavsiyasi doirasidagi mashg'ulotlarni anglab olishi va mahoratini rivojlantirib borishi kerak. Chunki, u bo'lg'usi aktyor, teatrda faoliyat olib boradigan mutaxassisdir. Unda hayoliy tasavvurni shakllantirish ham pedagog zimmasidagi ma'suliyatli vazifa. Sahnadagi aktyor o'z rolining uzluksiz halqachalardan iborat tizimini xayolan gavdalanitirish uchun quyidagilarni aniqlab olishi kerak bo'ladi:

1. Pyesaning g'oyaviy mazmuni, bo'lajak spektaklning g'oyasi.
2. O'z rolining g'oyasi va oliy maqsadi.
3. Rolning uzluksiz harakati.
4. O'zi yaratayotgan siymoning atrofidagi muhit bilan shu muhitga nisbatan o'z munosabati va ular o'rtasidagi bog'liqlik.

Aktyorlik mahoratini shakllantirish murakkab pedagogik jarayondir. Unda ma'ruzani birinchi, amaliy mashg'ulotlarni ikkinchi o'ringa qo'yib bo'lmaydi. Ikkalasin ham birdek olib borish shart.

Bu talablarni boshqacharoq qilib tushuntiradigan bo'lsak, aktyor o'z harakatini amalga oshirishdan avval, tasavvurida spektakl va o'zi yaratayotgan siymoning, badiiy-g'oyaviy, orzu-havasi niyatini aniqlab olishi kerak. Buning uchun, ushbu siymo berilgan shart-sharoitda nima ish bilan

shug'ullanadi, degan savolga javob topishi lozim. Buning uchun ikkita shartga rioya qilishi zarur. Birinchidan mazkur pyesada berilgan siymoning kimligini yaxshi bilishi, ikkinchidan, muallif tomonidan berilayotgan shart-sharoit qandayligini tahlil qilishi va mazkur sharoitni o'rganishi shart [3: 65]. Demak, talaba faqat rolni yuzaki baholamasdan, rolning ichida ma'lum vaqt mobaynida yashaydigan kasb egasi. Aktyorlik mahoratini egallashda talaba boshlang'ich mashg'ulotlarni puxta o'zlashtirishi, o'ziga singdirishi va anglashi katta ahamiyatga ega. Aktyorning ijobiy natijalariga erishishida tashqi va ichki ifodaviylikni charxlash, sahnaviy muhit yaratish kabi mashqlar uning professionaligini belgilovchi muhim omillardir.

Aktyorni tarbiyalashdagi yana bir muhim masalaga, ya'ni o'qituvchining bo'lajak aktyorning ijodiy shaxsini o'rganishi masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Har bir inson, har bir ijodiy individuallikning afzalliklari va kamchiliklarini, xususiyatlarini bilmagan holda o'qituvchi o'zining o'quv vazifasini to'liq bajara olmasligini hamma tushunadi. Bunday bilimlarsiz u ko'r-ko'rona harakat qilishga majbur bo'ladi va xatolar har qadamda uni kutib turadi. Shu bilan birga, biz tasvirlab bergan sahnaviy mashqlar singari mashg'ulotlar nafaqat bo'lajak aktyorlarga zarur bo'lgan qobiliyatlarni o'rgatibgina qolmay, balki har bir bo'lajak aktyorning insoniy va ijodiy shaxsiyatini o'rganish uchun juda ko'p materiallar beradi. Stanislavskiy bizga aktyorlik san'atining sistemasini tuhfa etgan bo'lsa davrlar o'tib bu texnika shakllandi, takomillashdi, mustahkamlandi, qayta ko'rib chiqildi, agar tabir joiz bo'lsa u har bir millat aktyorlik san'ati muhitiga moslashtirildi.

Aktyorlik kasbi ko'rinishidan oddiy ko'ringan murakkab labirint desak mubolag'a bo'lmaydi. Aktyor sohasida bir xil emas juda ko'plab formuladan foydalanish mumkinligini amalda sinab ko'rdim va aynan shu sinovlar natijasi o'laroq shuni angladimki aktyor o'zi yaratayotgan obrazning xarakterini asosiy ehtiyojini, intilishini yoki maqsadini aniq bilishi kerakligini angladim. Keyin aktyor bu maqsadga olib kelishi mumkin bo'lgan yo'lni yaniki ichki og'riqni topishi kerak.

Adabiyotlar

1. Muxamedova G., Usnatov R.. «Aktyorlik mahorati». – Toshkent; Navro‘z nashriyoti 2020.
2. Jahon adabiyoti jurnali 2015/9. Михаил Чехов. «Актёр техникаси». Рус тилидан. Махмудов таржимаси. 2015.
3. Ж. Махмудов. «Актёрлик маҳорати». Ўқув қўлланма. Т.: «Билим» нашриёти, 2005.

REZYUME. Mazkur maqolada aktyorlik mahoratini takomillashtirish jarayonida olib boriladigan mashg‘ulotlarning o‘rni va ahamiyati haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Aktyorlik mahoratini takomillashtirishda mashg‘ulotlarini samarali amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

РЕЗИЮМЕ. В этой статье рассматривается роль и значение обучения в процессе совершенствования актерского мастерства. Даны рекомендации по эффективному проведению обучения по совершенствованию актерского мастерства.

SUMMARY. This article reflects on the role and importance of training carried out in the process of improving acting skills. Recommendations have been made to effectively implement their training while improving their acting skills.

XALÍQ PEDAGOGIKASÍNÍN BALALAR USHÍN TÁRBIYALÍQ ÁHMIYETI

M.Palwaniyazov - *assistent oqıtıwshı*

Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat instituti Nókis filiali

Tayanch so‘zlar: xalq pedagogikasi, san’at, musiqa, musiqali tarbiya, musiqali badiiy asar, bolalar musiqiy folklori.

Ключевые слова: народная педагогика, искусство, музыка, музыкальное воспитание, музыкальное художественное произведение, детский музыкальный фольклор.

Key words: folk pedagogy, artistic creativity, musical education, musical composition, children's musical folklore.

Muzika – insanın ishki sezimleriniń sáwleleniwi hám bay kórkem óner túrleriniń biri, sebebi ol insanın ruwxıy dúnyasin rawajlandıra alatuǵın iskusstvonıń ayrıqsha jaǵımlı túri. Muzika belgili dárejede turmıstı hám dáwirdi sáwlelendiredi. Atap aytqanda, xalıq muzika hám qosıqshılıq kórkem óneri insanın turmısın, onıń arızıw-árman tileklerin ózinde sáwlelendirgen.

Muzika haqqında ullı filosof Platon: «Muzika insanlardı tárbiyalawda basqa qálegen tárbiya qurallarınan abzalıraq. Sebebi muzıkada seslerdegi uyqaslıq insan sezimleri hám ruwxıylıǵına jol tabadı»-degen bolsa, ullı babamız Alisher Nawayı: «muzıkada adam kewil xoshı sesler uyǵınlıǵınan quwat hám ruwx alsa xosh dawıstan lázzet aladı» [7.101.],-deydi. Sonlıqtan da salamat áwladtı mánawiy ruwxta tárbiyalawdaǵı, ruwxıy jaqtan bay adamlardı qaliplestiriwde birinshi pedogog muǵallım, dáslepki oqıtıwshı xalıqtıń ózi dep biykar aytpaǵan. Ullı shıǵıs oyshılı Al-Farabıydıń – «Muzika pání sol mániste paydalı bolıp kimniń minezi teń ólshemlilikke joǵaltqan bolsa, onı tártipke keltiredi» degen sózleri insan tárbiyasında muzikanıń tárbiyalıq áhmiyeti kúshli ekenin ańlatadı hám onı házirgi kúnde aktual máselelerdi ámelge asırıwda paydalanıladı. Muzika insan qalbiniń tili, ruwxıy azıǵı (S. Sheraziy) dep

atawları biykarǵa emes. Onıń insanın názik jan sezimlerine tásirin basqa kórkem óner túrleri arqalı jetkerip beriw bizińshe oǵada qıyın, hátteki múmkinde emes. Balalar ózleriniń sezimleri hám qıyallarına tásir etetuǵın qálegen nársenge oǵada sezimtal bolıp, olarǵa jalt etken ushqınday tez hám anıq juwap beredi. Olar insan kewil qoshına tereń tásir ete alatuǵın mazmunlı jaqsı muzikanı, haqıyqıy estetikalıq bahalılıqqa iye emes kórkem ónerdi ańsat ajratıp ala aladı, hátteki bunday mánissiz muzıkaga qaytıp jolamaydı. Balalar úyde, kóshede radio, televidenie, telefon t.b. derekler arqalı tómen jeńil-jelpi dárejede muzikanı, qosıqlardı esitiwi múmkin. Balanı bahası tómen, jeńil-jelpi tárbiyasına unamsız kerı tásir etiwı múmkin bolǵan bunday muzikalıq ónimlerden qorǵaw gerek. Usı máselede belgili kompozitor E.I. Rerix: «Balalardı jamanlıqlardan saqlań, jaman muzıkadan saqlań»-dep qáweterlene otırıp, [5. 283] balalardıń muzıkaga beyimligin rawajlandırıwı maslahát etti: «Siz balańızǵa kishi jasınan baslap dawıs gozzallıǵın úyretiwge ádetleniń. Ol muzikalıq bilim hám tárbyaǵa mıtáj. Tuwrı, hárbir adamda dawısqa beyimlik bar, biraq ol tárbiyasız uyıqlap qalıp hám sóniwi múmkin. İnsan tálim-tárbiyalıq áhmiyetke iye muzikanı, qosıqlardı tınlawı gerek. Geyde bir garmoniyanıń (uyqaslıq)